

**“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “TOVUSHLAR VA HARFLAR” BO‘LIMINI O‘RGANISHNING
MAQSAD-VAZIFALARI.”**

Matyoqubova Fotima Urinbayevna

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich

Talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmi maqolada tovushlar va harflar bo‘limini o‘rganishning maqsadi va vazifalari, hariflarni qo‘shib yozish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Savod so‘zining manosi, alifbe, metodika, tovush, fonetika, lingvistika, harflar, tovush turlari.*

Аннотация: *В данной научной статье рассказывается о цели и задачах изучения звуков и букв, сложения букв, правильного произношения слов*

Ключевые слова: *Значение слова грамотность, алфавит, методика, звук, фонетика, языкознание, буквы виды звука*

Abstract: *This scientific article talks about the purpose and tasks of learning sounds and letters, adding letters, and correct pronunciation of words.*

Key words: *The meaning of the word literacy, alphabet, methodology, sound, phonetics, linguistics, letters. types of sound.*

O‘qituvchi boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan barcha fanlarga oid darslarda so‘zni aniq va to‘g‘ri talaffuz qilish ustida doimiy ishlab boradi, shu maqsadda ko‘pincha so‘zning tovush tomondan analiz qilishdan foydalanadi. Maktab dasturiga muvofiq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fonetik-grafik ko‘nikmalar hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangiz undoshlar, jufti yo‘q jarangli va jufti yo‘q jarangsiz undoshlar, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, urg‘uli bo‘g‘inni ajratish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy o‘zlashtiradilar, ammo ular maxsus o‘qigunlariga qadar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishni, so‘zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf o‘quvchilarida so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘inlarga bo‘lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan aniq aytish ko‘nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq, ishlash, o‘z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so‘z tarkibida bir-biriga ta‘siri kabi ayrim elementar bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi. 1- sinfda fonetika va grafikani o‘rganishga katta o‘rin beriladi, chunki o‘quvchilar o‘qish va yozish jarayonini shu sinfda egallaydilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda, asosan mustahkamlanadi, takomillashtiriladi. Fonetika, leksika, grammatika, to‘g‘ri yozuvdan boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida bolalarning fikrlash qobiliyatlari o‘sadi; ular til hodisalarini tahlil qilishga, qiyoslashga, umumlashtirishga va

guruhlashga, o'z nutqlarida til birliklari – so'z va gaplarni to'g'ri qo'llashga o'rganadilar. Boshlang'ich sinflar "Fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish" dasturi bosqichli izchillik tamoyili asosida tuzilgan bo'lib, fonetika, grammatika, imlodan beriladigan boshlang'ich ma'lumotlar yuqori sinflarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot materiallari bilan uzviy bog'lanadi. Ushbu dastur "Tovushlar va harflar", "So'z", "Gap", "Bog'lanishli nutq" va "Husnixat" bo'limlarini o'z ichiga oladi. Dastur oxirida o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlar alifbo tartibida beriladi. "Tovushlar va harflar" harflar bo'limida tovushlar va harflarga oid asosiy bilimlar o'quvchilarning savod o'rgatish jarayonida o'rgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda, 1-2-sinflarda beriladi, ularga oid ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; bo'g'in, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida tushuncha beriladi. Bolalar shu bilimlar asosida aytilishi va yozilishida farq qiladigan so'zlar; *a* va *o*, *u* va *i* tovushli so'zlarning aytilishi va yozilishi; so'z oxirida kelgan jarangli *b* va *d* undoshlarning jarangsiz jufti *p* va *t* undoshi eshitilsa ham, *b* va *d* harfining yozilishi; ayrim so'zlar oxirida kelgan *d* va *t* undoshlarining talaffuzda tushib qolishi, ammo yozuvda saqlanishi; yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshli so'zlarning aytilishi va yozilishini bilib oladilar. 3 va 4-sinflarda esa tovushlar va harflarga oid bilimlar, mustahkamlanadi. So'zlarni tovush, harf tahlil qilish takomillashadi, bolalarda nutqni eshita olish qobiliyatini o'stirishga e'tibor kuchaytiriladi. Bular o'z navbatida, o'quvchilar savodxonligini oshiradi, xatosiz ko'chirib yozish, eshitib yozish, yozganlarini mustaqil tekshirish ko'nikmalarini o'stiradi. Tovushlar va harflar yuzasidan olib boriladigan ishlar kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq madaniyatini o'stirish va takomillashtirishga yo'naltiriladi. 1-sinf "Fonetika, grammatika, to'g'ri yozuv va nutq o'stirish" dasturiga ko'ra "Tovushlar va harflar" bo'limini o'rganish uchun 28 soat ajratilgan bo'lib, unda quyidagilar o'rganiladi. Tovushlar va harflar. Unli tovushlar va harflar; *a* va *o*, *i* va *u*, *o* va *o'* unli talaffuzi va imlosi. Undosh tovushlar va ularni ifodalovchi harflar. Ayrim undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi (*d-t*, *b-p*, *z-s* undoshlarining talaffuzi va imlosi), so'z oxirida, talaffuzda tushib qoladigan *d*, *t* undoshlari. Harf birikmalari: *sh*, *ch*, *ng*. Alifbo: Harflarning nomi. Harflarning bosh va kichik shakllari. So'zlarni alifbo tartibida yozish. Tutuq belgisi (), uni so'z tarkibida to'g'ri shakllantirish. Tutuq belgisining so'zdagi vazifasi: o'zidan oldingi unlining cho'ziq aytilishiga, oldingi bo'g'inni keyingi bo'g'indan ajratib talaffuz qilinishiga xizmat qilishi. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inga bo'lish. Bo'g'in ko'chirilishi, bir unlikdan iborat bo'g'inli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi, tutuq belgili so'zlarni, ketma – ket kelgan bir xil undoshli so'zlarni bir yo'ldan keyingi yo'lga bo'g'inlab ko'chirish. Harf birikmasi (*sh*, *ch*, *ng*) qatnashgan so'zlarning bir yo'ldan ikkinchi yo'lga ko'chirilishi. 2-sinf "Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish" dasturiga ko'ra "Tovushlar va harflar" bo'limini o'rganish uchun 56 soat belgilangan. Bu bo'limni o'rganish mazmuni quyidagicha: Unli va undosh tovushlar, ularning bir-biridan farqi. Tovushlarni harflar bilan belgilash. Unli tovushlar va harflar. O'zbek tilidagi olti unli tovushning olti unli harf bilan belgilash. [A] va [o] ,

[u] va [i] , [ye] , [o'] unli tovushlarining talaffuzi va undosh tovushlar portlovchi *F* va *p*, *h* va *x* hamda harf birikmasi bilan ifodalanilgan ng tovushining talaffuzi va imlosi. Tutuq belgisi (,) va uning ishlatilishi. Tutuq belgisining so'zdagi vazifasi. Berilgan so'zni lug'atdan topa olish. Tavsiya etilgan 3-6 so'zni alifbo tartibida yozish. Bo'g'in. So'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismini keyingi satrga bo'g'inlab ko'chirish. So'zda nechta unli tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishi. Bo'g'in tarkibi unli tovushdan, bir unli va bir undosh tovushdan tuzilishi. Bo'g'in ko'chirish. So'zning bir yo'ldan keyingi yo'lga bo'g'inlab ko'chirilishi. Bo'g'in hosil qilgan bir unli harfni oldingi yo'lda qoldirib yoki keyingi yo'lga ko'chirib bo'lmasligi. Bir bo'g'inli so'zlar, *ona*, *ahil*, *o'rik*, *elak* kabi ikki bo'g'inli so'zlarni ko'chirish uchun bo'linmasligi. Tutuq belgisi qo'yib yoziladigan so'zlarni bo'g'in ko'chirish uchun bo'linishi, tutuq belgisining oldingi bo'g'inda qoldirilishi (*va'-da*, *mash'-al*, *ta'-lim*). Harf birikmali so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (*si-ngil*, *ko'-ngil*, *tong-gi* kabi), yonma-yon kelgan bir xil undoshli so'zlarning bo'g'inlab ko'chirilishi (*ik-ki*, *kat-ta*, *is-siq* kabi). Jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, ularning imlosi, bunday so'zlarning yozilishini so'z oxiriga unli tovush qo'shib aytib tekshirish (*maktabim* – *maktab*, *kitobim-kitob*, *maqsadim* – *maqsad*, *umidim* – *umid* kabi). Aytilishda tushib qoladigan undoshlar. (Farzand, daraxt, do'st kabi) ularning imlosi. 3-sinfda "Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish" dasturi uchun jami 170 soat soat ajratilgan bo'lib, shuning 24 soati takrorlash uchun ajratilgan. Bunda quyidagilar takrorlanadi: Nutq va gap, gap va matn. So'z. Gap. Fikr bildirish maqsadiga ko'ra turlari, gapning *kim?* yoki *nima?* haqida ekanligini bildirgan so'zlar. So'z va so'zlarning nomlanishiga ko'ra guruhlanishi. Tovushlar va harflar. Unli va undosh tovushlar va harflar. Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlarga bo'lib ko'chirish qoidalari. So'zlarni bo'g'in, tovush va tovush – harf jihatdan tahlil qilish. Tutuq belgisi va uning ishlatilishi. *Sh*, *ch*, *ng* harf birikmalari, ketma-ket kelgan bir xil undoshli so'zlar va ularning imlosi. So'z oxirida kelgan, jarangli, jarangsiz jufti bor undoshlar imlosi. 4-sinfda "Fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish" dasturiga 170 soat ajratilgan bo'lib, shuning 10 soati "Tovushlar va harflar" uchun ajratilgan. Bu 10 o'quv soat quyidagi bilimlar berishi ko'zlanadi: Unli va undosh tovushlar, ularning harfiy ifodasi; talaffuzi va yozilishi farq qiladigan unli tovushli so'zlarning talaffuzi va imlosi; jarangli va jarangsiz undoshlarning talaffuzi va imlosi; bir xil qo'sh undoshli so'zlar va ularning imlosi; so'z oxirida qator kelgan undoshli so'zlar va ularning imlosi, *x-h* tovushli so'zlar va ularning imlosi, tutuq belgisi so'zlarning talaffuzi va imlosi, tutuq belgisining so'z ma'nolarini farqlashi.

Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish; unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishi; so'zlarni bir satrdan ikkinchi satrga bo'g'inlab ko'chirish; so'zlarni bo'g'in, tovush va harf jihatdan tahlil qilish.

Alifbo. So'zlarni alifbo tartibida qayta tuzish. Alifboning ahamiyati. Dasturda belgilangan bu bilimlarni o'quvchilarga to'laqonli qilib yetkazib berishda o'qituvchi turli ish turlaridan foydalanishi lozim. Chunki "Tovushlar va harflar" bo'limi materiallari yangi bilim bo'lsa, keyingi sinflar uchun u takror bo'lishi mumkin. Har bir

sinfda bo'lim materiallari mazmuni takomillashtirilib kengayib boriladi. Savod o'rgatish davrining dastlabki birinchi haftasi o'quvchilarni savod o'rgatishga tayyorlash ushuni ajratiladi, shuning ushuni bu davrni alifbegacha bo'lgan deb ataladi. Savod o'rgatishning bu davrdagi mashg'ulotlar alifbe kitobining 3-6 betlaridagi rasmlar asosida yuqoridagi metodlar asosida suhbat uyushtiriladi, o'z nutqiga ongli munosabat tarkib toptiriladi. «Alifbe» ning 2-3 betlarida turli millat bolalari – «Do'stlik» mavzuidagi rasmga qarab gap tuzilgan bo'lsa, 4-betda «Biz quvnoq bolalar» nomli rasm berilgan. Bolalar rasmda ifodalanganlar asosida gap tuzadilar. 5-betda «O'yin» temasiga doir rasmlar berilgan. Bu rasmlardan o'zlari qiziqqan narsalarni tomosha qiladilar. Predmetning nomlarini aytadilar. Suhbatlarning jonli, ko'rgazmali bo'lishiga alohida e'tibor berish zarur. Suhbat uchun faqat darslikdagi rasmlarning o'zi kifoya qilmaydi, balki uning mazmunini to'ldiruvshi boshqa rasmlardan yoki predmetlarning o'zidan namuna ko'rsatish o'quvshilarning yana qiziqishini orttiradi. Masalan, kitobning 6-betida «Bizning oila» temasida rasm berilgan. Bunda o'qituvshi o'quvchilarning o'z oilalari misolida gap tuzdirish mumkin. O'quvchilar tomonidan gap tuzdirilganda, ularning nutqiga, tovushlarning qanday talaffuz qilishlariga ovozlarni boshqara olishlariga ham e'tibor berish lozim. Alifbegacha bo'lgan davrda o'qituvchi bolalarni dastlab, maktab hayoti, uning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiradi, o'quvchilar maktabda, darsda, tanaffuz vaqtida maktabdan tashqari vaqtda o'zlarini qanday tutishlari lozimligi o'rgatiladi, shuningdek maktab va oilada kundalik rejimga ko'nikma hosil qilib, unga odatlantirila boriladi. Bu davrda o'qituvchilar o'quvshilar kollektivini tashkil etishi va har bir o'quvshi shu kollektivning a'zosi ekanligini ular ongiga singdirish, bolalarga kollektiv bo'lib ishlashni asosiy tartib qoidalarini o'rgatishi kabi vazifani bajaradilar: o'quvchilarda dars jarayonida partada to'g'ri o'tirish, savol yoki javob berishdan oldin qo'l ko'tarish, hammaga eshitarli qilib, shoshmasdan, tutilmasdan gapirish kabi, kitob va daftarlarni, shuningdek, sinfdagi jihozlarni ehtiyot qilib saqlash, tanaffuzga chiqish va darsga kirishda shopmaslik kabi ko'nikmalarni hosil qila boradi. Bolalar maktab binosi, tevarak atrof bilan tanishtiriladi. Ular o'qituvshining aytganlarini diqqat bilan tinglash, topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, savolga javob qaytarish va savol berishga, o'rtoqlarining javobini tinglashga odatlantiriladi. Ayniqsa, o'quvchilarni o'z vazifalarini tushunib, uning o'z vaqtida to'liq tushunishga odatlanishi, har bir o'quvchiga individual yondashib, ularning o'ziga xos xususiyatlarini savod olishga qanchalik tayyor ekanligini vaqtida aniqlab olish savod o'rgatish darslarining to'g'ri uyushtirilishiga yordam beradi. O'qituvchi har bir bolaning eshituv, ko'ruv organlaridagi kamchilik, diqqatning tarqoq emasligini sinchiklab o'rganib, ko'ruv va eshituv quvvati zaifroq, shuningdek past bo'yli o'quvchilarni oldingi partalarga o'tqazadi. O'quvchilar gap, so'z, bo'g'in, tovush bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalarning eshinishi va so'zlash qobiliyatini mantiqiy fikrlashni o'stirishga doir; shuningdek o'qituvchining ovozigacha ergashib she'rlar yodlash, hikoyachalar mazmunini

aytib berish, rollarga bo'lib o'qish kabi mashqlar o'tkaziladi. Birinchi sinf o'quvchilari uchun harf va harflarni to'g'ri qo'shib yozish qiyin va muhim mashg'ulot hisoblanadi. Alifbegacha bo'lgan davrda bolalar yozuviga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar. Avvalo bolalarni yozuv mashqni bajarish vaqtida partada to'g'ri va erkin o'tirishga, ruchkani to'g'ri ushlagga, daftarni parta ustiga normadagi qiyalikda qo'yishga o'rgatish zarur. Buning ushun «Yozganda to'g'ri o'tir» nomli rasmdan foydalaniladi. «Ish daftari» ga yozishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarni shu daftar shiziq-lari bilan tanishtiradi va unga harflarni to'g'ri yozishga, harflar oralig'ini to'g'ri shamalashga o'rgatadi. Savod o'rgatishning dastlabki davridagi 6-7 yoshli bolaning yosh xususiyatni uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu davrda O'quvchilar uzoq vaqt bir xil ishsizlik darajasi bilan shug'ullana olmaydilar. Shuning ushun ishsizlik darajasi turi har 10-15 minutda boshqasi bilan almashtirilib turilishi lozim. Shu bilan birga, har bir bosqishida o'tkaziladigan mashg'ulotlar dars rejasi va maqsadga bo'ysindirilgan bo'lishi lozim. Darsda ishsizlik darajasi shunday uyushtirilishi kerakki, hikoya qilish va suhbatlar o'quvchining aktiv harakati, shu jismoniy mashqlar bilan ham almashtirilib turiladi. Alifbedagi rasmlar asosida gapni so'zlarga bo'lish yuzasidan olib borilgan ishdan so'ng o'quvchilarga ertak aytiriladi. So'ng ular shu ertak personajlarining rasmini shizadilar. Keyin o'qituvshi shu ertakdan yoki suhbat asosida tuzilgan qisqa bir gapni aytib, bolalardan shu gapda neshta so'z borligini so'raydi; bolalar shu gapdagi so'zlar sonini aytadilar. O'qituvchi har bir so'zni sinf doskasida to'g'ri shiziq bilan belgilab boradi. (____). Masalan, o'qituvshi Paxta oshildi gapini aytab, o'quvchilar bu gap ikki so'zdan tuzilganligini aytabdilar. O'qituvshi doskaga shu gap sxemasini shizadi (___ ___). Bunday mashqlar o'qituvshi yordamida bir nesh bor o'tkazilgach xuddi shunday mashqni o'quvchilarning o'zlariga doska va daftarlarida mustaqil ishlatadilar. Yozuv darsida o'qituvchining tushuntirishi o'quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlar bilan almashtirib turiladi, ya'ni O'quvchilar ruchka ushlagan qo'llaridagi barmoqlari qanday ko'tarilishi va pastga tushirilishlari ko'rsatiladi. O'quvchilar yozadilar, o'qituvchi bolalar yozuvini kuzatib turadi. Ularda yozuvdan charchash holati sezilsa, qo'l va barmoqlarni harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi. So'ng yana davom ettiriladi. Alifbegacha bo'lgan davrda mashg'ulotlar 45 minut emas 35 minutni tashkil etadi. Savod o'rgatish davri sentyabr oyidan to dekabr oyining oxirigacha bo'lganmuddatni, ya'ni 2 o'quv shoragini qamrab oladi. Savodga o'rgatish jarayoni tayyorgarlik va alifbe davridan tashkil topadi. Tayyorgarlik va alifbe davrida ta'lim savodga o'rgatishning taxlil tarkib (analitik, sintetik) tovush usulida amalgaoshiriladi. Savodga o'rgatishning taxlil tarkib usuliga ko'ra matndan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in va tovush, yoki aksincha, tovush - bo'g'in - so'z - gap - matn uzviy aloqada butundan bo'lakka, bo'lakdan butunga qarab taxlil va tarkib qilinadi. Bu esa, o'quvchi tafakkur faoliyatini onglilik, tushunarlilik, mantiqiylik, ilmiylik kabi didaktik mezonlar

asosida rivojlantirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Boshlang'ich ta'limning ilk savodga o'rgatish davridanok o'quvchi nutqini yangi so'zlar hisobiga boyitishga alohida e'tibor qaratiladi. «Alifbe» darsligida berilgan yangi so'zlar matn, hikoyacha va she'rlardan foydalanib, o'quvchilarni so'z ma'nosi bilan atroflicha tanishtirish, she'riy va nasriy matnlarni yodlatish, qayta hikoyalashga e'tibor beriladi. SHuningdek, sinfdan tashkari o'qish darslarida o'quvshini bolalar adabiyoti namunalari bilan tanishtirib borish, ularni mustaqil o'qishga, ota-onalar va uqituvchilar yordamida badiiy o'qishga qiziqtirish, o'quvshi nutqini boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchini darslik va qo'shimcha ko'rgazmali illustrativ materiallar (rasmlar, filmaskop, buyumlarining asl nusxasi va dasrlikdagi rasm - illustratsiyalar) vositasida maktab ta'limiga moslashtirishga, o'quvshi qo'lini yozuvga tayyorlash, gapdan so'z, bo'g'in va tovushni turli xarakterlar (oyok, ko'l xarakati, o'yin elementlari) asosida o'rgatishga e'tibor beriladi. Bu davrda o'quvchi, asosan, quyidagi tushincha, malaka va ko'nikmalarni egallaydilar:

1.O'quv predmeti mazmuni asosida tashkil etiladigan dars haqidagi amaliy ko'nikma; darsning muayyan vaqt oralig'ida davom etishi; dars jarayonida o'quvchining tutgan o'rni haqida tushincha;

2.rasm mazmunini anglash, rasm mazmuni asosida mantiqiy izchillikka ega bo'lgan matn tuzish;

3.darslik bilan ishlash, og'zaki nutq xaqida tushincha;

4.Yozma nutq, gap xaqida tushincha;

5.So'z va bo'g'in haqida tushincha;

6.Unli va undosh tovush haqida tushincha;

7.Maktab partasida to'g'ri o'tirish;

8.Darslikdan foydalanishga oid ilk o'quv ko'nikmalarini shakllantirish;

Yozuv darslari o'qish darslari bilan uzviy bog'langan holda, biri ikkinchisiga bevosita aloqadorlikda olib boriladi. Yozuv darslarining ilk bosqi chida o'quvchida yozuv qoidalari gigi enasigaoid ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. O'quvchini ruchkani to'g'ri ushlashga, yozuv xolatida bosh va elkani mutanosib tutishga, daftar qiyaligini to'g'ri shaylashga o'rgatiladi (daftarparta ustiga 650 qiyalikda qo'yiladi). qo'lni yozuvga tayyorlash, qo'l panjalari va mayda muskullar harakatini rivojlantirishga oid boshlang'ich yozuv mashg'ulotlari va jismoniy qo'l harakati mashg'ulotlari o'tkaziladi. Tayyorgarlik davri yozuv darslarida o'quvchi yozuv daftaridan to'g'ri foydalanish, yozuv mashg'ulotlari gigi enasiga oid ilk ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bu davrda «Alifbe» darsligi va yozuv daftarida ko'rsatilgan yozuv yo'li bo'ylab shamallash mashqlari (bir xil masofada nuqtalar qo'yish, ilgakshalar, tayoqchalar, bayroqchalar shizish kabilar) asosida mashg'ulot o'tkaziladi. Tayyorgarlik davri yozuv darslarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan tushincha va ko'nikmalar quyidagilardan iborat.

1.Yozuv daftari bilan o'quvchi oralig'ida muayyan masofani saqlash;

2.yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish;

3. parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;

4. yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni tug'ri xarakat qildirish;

5. yozuv el ementlarini to'g'ri idrok etish (qaerdan boshlash, qaerga to'xtash, o'ngga, chapga burilish, yoza boshlash va x.k). Alifbegacha (tayyorgarlik) davrida yuqoridagi tushincha va ko'nikmalarning shakllantirilishi darsni yanada samarali olib borish uchun imkoniyat yaratadi. O'qishga o'rgatish Unli va undosh tovushlar, ularning talaffuziga xos farqlanish haqida ma'lumot berish. Harf va tovush munosabatiga oid tushinchalar bilan o'quvchini tanishtirish. Kesma harf va bo'g'inlar asosida so'z hosil qilish, tuzilgan so'zlarni to'g'ri o'qish. So'zlarni avval bo'g'inlab, so'ngra bo'g'inlab ravon o'qishga o'rgatish. Tinish belgilariga rioya qilib, ifodali o'qishga o'rgatish. O'qish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan gigiena qoidalariga rioya qilishga o'rgatish. Yozuvga o'rgatish. Unli va undosh harflarning bosh va kishik shakllarini yozish. O'quvshida yozuv sifatini, ya'ni:

1. harflarni to'g'ri bog'lab yozish;

2. harflarni 650 qiyalikda yozish;

3. har bir qatorda harflarning bir xil balandlikda bo'lishiga erishish;

4. harf unsurlari, harflar va so'zlar orasidagi masofalarni bir xilda saqlash kabilarni shakllantirish.

Har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki xattaxtada tushintirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish, qaerda bu xarakatni burish yoki uzish kerakligi, xarflarning yozuv shizig'i bo'ylab joylashishi xaqida nazariy va amaliy tushincha va malakalarni rivojlantirish. Avval nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan ko'lni yurg'izib, so'ng namunaga qarab yozishga o'rgatish. Harflarning shaklini tasavvur orqali yozdirish asosida yozuvga o'rgatish. Bir va undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan talaffuzi va yozilishi bir xil so'zlarni, 2 – 3 so'zdan tuzilgan gaplarni eshitib yozish. So'z va gapni to'g'ri yozish. (Gapning birinshi so'zini bosh harf bilan yozish, so'ngiga tinish belgisi (nuqta)ni qo'yish). Eshituv va kiruv xotirasiga asoslangan kishik diktantlar yozish. O'qish ko'nikmalari O'quv yilining birinchi yarmida 20 –25 so'zli matnni to'g'ri ongli, bo'g'inlab o'qish; Bir bo'g'inli va sodda tuzilishdagi ikki bo'g'inli so'zlarni yaxlit o'qish; Notanish matnni o'qish tezligi, 20-25 so'z. Ma'lumki savod o'rgatish jarayoni o'quvchilarning nafaqat xat savodlarini chiqarish, Kelgusida ularning fe'l –atvori, ko'plab ko'nikmalar va odatlarning shakllanishida ilk bosqich sanaladi. Shunday ekan biz, o'quvchilarni chiroyli va savodli yozishga o'rgatish orqali ularda iroda, tartiblilik, ozodalik kabi sifatlarni shakllantirishga erishishimiz mumkin. O'quvchilar savodli va to'g'ri yozish orqali e'tiborli, irodali, tartibli bo'lishga o'rganib boradilar. Bu esa jamiyatimizda shakllanayotgan har bir shaxsga tegishli bo'lgan fazilatlardan biridir. Savod o'rgatish jarayonida ta'limiy diktantlardan foydalanishga bag'ishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishda biz ana shu masalani ko'rib chiqdik. Unda asosan o'quvchilarni savodli va husnixat asosida yozishga o'rgatish masalalari, darslarni interaktiv usullar hamda didaktik o'yinlardan foydalanib tashkil etish masalalirga asosiy e'tibor qaratildi. Ilmiy

metodik adabiyotlar, tadqiqot jarayonida olingan natijalar tahlili hamda boshlang'ich ta'lim jarayonini kuzatishlar asosida quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kichik yoshdagi bolalarga beriladigan til ta'limi va tarbiyasi o'zgacha yo'nalish, o'zgacha usullar bilan boyitib, til sofligi, adabiy til me'yorlarini singdirish kabi zaruriy mashqlar vositasida olib boriladi. Shuningdek, savod o'rgatish jarayonida ham pedagogik texnologiyalarning ilg'or usullariga tayanib ish ko'rmoq joiz hamda bolalar idrok eta oladigan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ular qisman maxsus o'quv qo'llanmalar mazmuniga kiritilishi zarur. Boshlang'ich ta'limining samaradorligini oshirish omillaridan biri bolalarning savodli yozish malakalarini tarbiyalashdir. Buni 1-sinfdan boshlanib, yuqori sinflarda ham davom ettirilishi lozim. O'qish ham, yozish ham murakkab nutq faoliyati. U kichik yoshdagi o'quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy xarakatni ham talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fuzalov S., Xudoyberganova M. «Ona tili» 3-sinf uchun. T., «O'qituvchi» 2003 - yil.
2. IKromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 2003- y.
3. 2-sinfda o'qitish. Tuzuvchi Mavlonova R.A.T., «O'qituvchi», 1977- y.
12. IKromova R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. T., «O'qituvchi», 1993 -yil.
4. Ma'qulova B. va boshqalar. Boshlang'ich sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari. T., «O'qituvchi», 1996- yil.
5. Mirzaev I. Dars tahlili. T., «O'qituvchi», 1985- yil.
6. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
7. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- y.
8. Umarova M, Hudoyberganov M. Bayonlar to'plami. T. "O'qituvchi", 1992-y
9. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., 'O'qituvchi", 1985- yil.
10. Qosimova K., Ubaydullaeva. 2-sinfda ona tili darslari. T., "O'qituvchi", 1987-y.
11. G'ulomov M. Husnixat metodikasi. T., "O'qituvchi", 1976 -yil.